OLIY MAJLIS QONUNLARNI QANDAY QABUL QILADI?

Azimova Sevara Azizxon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24337729

Har kuni yangiliklarda “qonun qabul qilindi”, “Senat ma’qulladi”, “Prezident imzoladi” degan xabarlarni o‘qiymiz. Bu uch ibora bir xil ma’noni anglatmaydi. Ular bitta hujjat bosib o‘tadigan uch xil bekatning nomi desam ishornarmidingiz? Qonun shu yo‘lning hammasini bosib o‘tgandagina yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Konstitutsiyaga ko‘ra, Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U ikki palatadan iborat. Qonunchilik palatasi, ya’ni quyi palata 150 deputatdan tashkil topadi. Senat, ya’ni yuqori palata hududiy vakillik palatasidir. U Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan to‘rt nafardan senator saylanadi, yana to‘qqiz nafarini Prezident tayinlaydi. Shu tariqa 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotdan so‘ng senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga qisqardi. Har ikki palataning vakolat muddati besh yil.

Keling vakillik organi haqida tanishgan ekanmiz, endi sizni butun qonun hujjati qabul qilinishining jarayonidan olib o‘tsam.

Hammasi birinchi qadam, ya’ni tashabbusdan boshalandi. Qonun loyihasini har kim ham parlamentga kirita olmaydi. Konstitutsiyaning 98-moddasi qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarini sanab beriladi: Prezident, o‘z davlat hokimiyati oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bu doirani kengaytirdi. Endi saylov huquqiga ega bo‘lgan kamida yuz ming fuqaro, Senat, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) va Markaziy saylov komissiyasi ham qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishi mumkin bo‘ldi.

Ikkinchi qadam esa Qonunchilik palatasidan boshlanadi, chunki loyiha Qonunchilik palatasi mas’ul qo‘mitasida o‘rganiladi, fraksiyalarda muhokama qilinadi va palata majlisida o‘qishlarda ko‘rib chiqiladi. Amaliyotda birinchi o‘qishda loyihaning konsepsiyasi, ikkinchi o‘qishda har bir moddasi, uchinchi o‘qishda yakuniy matni muhokama qilinadi. Palata qabul qilgan qonun Konstitutsiyaning 99-moddasiga ko‘ra o‘n kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi.

Uchinchi qadam esa Senat bilan uzviy bog‘liq. Senat qonunni oltmish kun ichida ko‘rib chiqadi va uni ma’qullaydi yoki rad etadi. Ma’qullangan qonun o‘n kun ichida Prezidentga yuboriladi. Shuningdek, agar Senat oltmish kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni Prezidentga o‘zi yuboradi. Demak, yuqori palataning sukuti endi qonunni to‘xtatib qo‘ya olmaydi.

Senat rad etgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Shunda ikki yo‘l turadi. Birinchisida palatalar teng asosda kelishuv komissiyasi tuzib, kelishmovchilikni bartaraf etadi. Ikkinchisi esa Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovozi bilan qonunni qayta ma’qullaydi. Bu hollarda qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va Prezidentga yuboriladi.

Oliy majlis qonun loyihasini tasdiqlab bo‘lganidan so‘ng, Prezident qonunni oltmish kun ichida imzolaydi va e’lon qiladi. U qonunni o‘z e’tirozlari bilan Oliy Majlisga qaytarishga ham haqli. Bu vakolat veto deb ataladi. Bu vetoni esa faqat qonun avvalgi tahririda tegishincha

Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovozi bilan qayta ma’qullashi orqali yengsa bo‘ladi. Prezident shundan keyin uni o‘n to‘rt kun ichida imzolashi va e’lon qilishi shart.

Beshinchi qadam oxirgi boshqich hisoblanib qonunni e’lon qilishni o‘z ichiga oladi. Konstitutsiyaning 99-moddasiga ko‘ra, qonunlarning e’lon qilinishi ular qo‘llanilishining majburiy shartidir. E’lon qilinmagan qonun hech kimga majburiyat yuklamaydi. Rasmiy matnlar Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida (lex.uz) joylashtiriladi, shu bois biror hujjatning amaldagi tahririni aynan o‘sha yerdan tekshirish to‘g‘ridir.

Endi o‘ylayotkan bo‘lsangiz kerak, nega yo‘l bunchalik uzun?

Bir qarashda bu tartib ortiqcha murakkabdek ko‘rinadi. Biroq uning ortida uch asrlik g‘oya turadi. Sharl Lui Monteskyo 1748-yilda yozgan “Qonunlar ruhi haqida” asarida hokimiyat bir qo‘lda to‘plansa, erkinlik xavf ostida qolishini, shuning uchun bir hokimiyat qolgan hokimiyatlarni tiyib turishi lozimligini asoslagan. Ikki palata, veto va uni yengish tartibi shu g‘oyaning amaliy ko‘rinishidir.

Zamonaviy siyosatshunoslik ham shunga yaqin xulosaga keladi. Jorj Sebelis va Janet Mani ikki palatali parlamentlarni o‘rganib, ikkinchi palata shoshma-shosharlik bilan qabul qilinadigan qarorlarni kamaytirishini va qonunlar sifatiga ijobiy ta’sir etishini ko‘rsatgan. Amerikalik huquqshunos Lon Fuller esa qonun “qonun” bo‘lishi uchun javob berishi kerak bo‘lgan sakkiz talabni sanagan. Ular orasida qonunning e’lon qilinishi, tushunarli bo‘lishi va tez-tez o‘zgarmasligi bor. Uzun protsedura aynan shu sifatlarni ta’minlash vositasi.

Albatta, tartibning o‘zi sifatni kafolatlamaydi. Qo‘mitadagi muhokama rasmiyatchilikka aylansa yoki jamoatchilik fikri so‘ralmasa, eng mukammal protsedura ham zaif qonun chiqaradi. Shu sababli loyihalarning regulation.gov.uz portalida muhokamaga qo‘yilishi va yuz ming fuqaroning taklif kiritish huquqi faqat ramziy yangilik emas. Bu qonun yo‘lining boshiga oddiy fuqaroni ham qo‘shadigan mexanizm. Undan foydalanish esa o‘zimizga bog‘liq.